




## Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyun)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



- Tog'-kon sanoati ochiq konlarni ishlash
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 28 503,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 105,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 83,1 % ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 64,1 % ga va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 39,0 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 9,0 % ga hamda , tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 3,9 % ga o'sishiga xizmat qildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiylovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 920,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,2 % ini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23 692,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlaring 83,1 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da





## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2019- yil yanvar-iyun oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,9 % (7,1 %), o'rta-quyi texnologiyali - 86,7 % (84,2 %) va quyi texnologiyalisi - 7,0 % (8,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 5,1 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 113,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 79,0 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 115,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 98,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 92,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,2 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 103,7 %) ni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan  
ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish, % da
<b>Portlandsement, ming tonna.</b>	1 699,0	1 750,0	103,0
<b>So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, tonna.</b>	27 340,9	30 066,0	110,0
<b>Ammoniy nitrat, ming tonna azod</b>	125,22	96,33	76,9
<b>Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna.</b>	9,6	31,59	329,1
<b>Kislorod, ming m<sup>3</sup>.</b>	72,96	73,08	100,2
<b>Temir beton, tonna.</b>	33 547,1	18 873,0	56,3
<b>Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.</b>	319,75	287,59	89,9
<b>Ishlov berilgan suyuq sut, tonna.</b>	585,31	529,35	90,4


Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, portlandsement (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,0%), hamda kaustik soda (3,3 m) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan - 76,9 %) mahsuloti ishlab chiqarish sanoatida pasayishi kuzatildi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 819,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining - 6,4 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 39,0 % ga oshganligi kuzatildi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	4 626,26	5 883,56	1 257,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 984,67	2 000,85	16,18



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3% ni) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da




## Yirik sanoat korxonalarini tomonidan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasidagi bajarilgan ishlar hajmi

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	7 535,5	14 459,6	6 924,1
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	21,1	9,3	-11,8
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	14 571,75	15 045,31	473,56



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 717,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 59,3 % dan 59,7 % gacha kupayganligi qayd etildi

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino - aroq mahsulotlari va pivo 0,3 % (2019- yil yanvar-iyun oylarida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 30,6 % ni, shuningdek, Karmana tumani 19,1 % ni, Xatirchi tumani 13,5 % ni, Qiziltepa tumani 12,3 % ni hamda Navbahor tumani 6,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahar (112,1 %) hamda Konimex tumanida (104,9 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-iyun oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 717,8</b>	<b>100,0</b>	<b>102,1</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>525,7</b>	<b>30,6</b>	<b>112,1</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>104,6</b>	<b>6,1</b>	<b>95,7</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Karmana</b>	<b>327,4</b>	<b>19,1</b>	<b>101,8</b>
<b>Konimex</b>	<b>40,6</b>	<b>2,3</b>	<b>104,9</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>211,1</b>	<b>12,3</b>	<b>101,5</b>
<b>Navbahor</b>	<b>107,9</b>	<b>6,3</b>	<b>91,5</b>
<b>Nurota</b>	<b>103,1</b>	<b>6,0</b>	<b>101,0</b>
<b>Tomdi</b>	<b>15,2</b>	<b>0,9</b>	<b>94,9</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>50,2</b>	<b>2,9</b>	<b>94,1</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>232,0</b>	<b>13,5</b>	<b>94,0</b>

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 25,6 %, shuningdek, Qiziltepa tumani 18,8 % ni, Xatirchi tumani 17,7 % ni, Karmana tumani 11,7 % ni hamda Navbahor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (112,4) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>692,4</b>	<b>100,0</b>	<b>101,2</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>177,3</b>	<b>25,6</b>	<b>104,1</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>57,8</b>	<b>8,3</b>	<b>101,6</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Karmana</b>	<b>80,9</b>	<b>11,7</b>	<b>95,3</b>
<b>Konimex</b>	<b>20,7</b>	<b>3,0</b>	<b>95,6</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>130,1</b>	<b>18,8</b>	<b>112,4</b>
<b>Navbahor</b>	<b>59,3</b>	<b>8,6</b>	<b>95,9</b>
<b>Nurota</b>	<b>7,3</b>	<b>1,0</b>	<b>103,4</b>
<b>Tomdi</b>	<b>8,2</b>	<b>1,2</b>	<b>96,0</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>28,3</b>	<b>4,1</b>	<b>95,3</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>122,5</b>	<b>17,7</b>	<b>95,9</b>

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 34,0 %, shuningdek, Karmana tumani 24,0 % ni, Xatirchi tumani 10,7 % ni, Nurota tumani 9,4 % ni hamda Qiziltepa tumani 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida (116,7 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 025,4</b>	<b>100,0</b>	<b>102,7</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>348,4</b>	<b>34,0</b>	<b>116,7</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>46,8</b>	<b>4,6</b>	<b>89,3</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Karmana</b>	<b>246,5</b>	<b>24,0</b>	<b>104,2</b>
<b>Konimex</b>	<b>19,9</b>	<b>1,9</b>	<b>116,7</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>81,0</b>	<b>7,9</b>	<b>87,8</b>
<b>Navbahor</b>	<b>48,6</b>	<b>4,7</b>	<b>86,6</b>
<b>Nurota</b>	<b>95,8</b>	<b>9,4</b>	<b>100,9</b>
<b>Tomdi</b>	<b>7,0</b>	<b>0,7</b>	<b>93,7</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>21,9</b>	<b>2,1</b>	<b>92,8</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>109,5</b>	<b>10,7</b>	<b>92,0</b>



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 671,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.




**Navoiy viloyati hududlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-iyun mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>28 503,4</b>	<b>105,5</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>23 925,1</b>	<b>108,9</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>117,9</b>	<b>86,1</b>
<i>tumanlar</i>		
<b>Karmana</b>	<b>3 053,5</b>	<b>122,0</b>
<b>Konimex</b>	<b>173,3</b>	<b>100,3</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>551,3</b>	<b>104,9</b>
<b>Navbahor</b>	<b>247,1</b>	<b>112,9</b>
<b>Nurota</b>	<b>126,5</b>	<b>102,3</b>
<b>Tomdi</b>	<b>16,5</b>	<b>98,2</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>54,2</b>	<b>92,7</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>238,0</b>	<b>100,0</b>



## Navoiy viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatimiz sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Navoiy shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmning 83,9 %), Karmana (10,7 %), Qiziltepa (1,9 %), Navbahor (0,9 %), hamda Xatirch (0,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Tomdi (0,1 %) hamda Uchquduq (0,2 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.


Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan choratadbirlar Karmana (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 122,0 %), Navbahor (112,9 %) Qiziltepa (104,9 %), tumanlarda hamda Navoiy (108,9 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi  
(2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (165 265,1 ming so'm), Karmana (24 207,7 ming so'm), Konimex (4 850,5 ming so'm) va Qiziltepa (3 621,9 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 3 631,7 ming so'mni, Karmana tumani - 2 595,3 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 1 386,9 ming so'mni, Uchquduq tumani - 1 344,1 ming so'mni, Xatirchi tumani - 1 162,2 ming so'mni va Konimex tumanida - 1 135,3 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, ming so'm)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>28 478,3</b>	<b>1716,3</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>165 265,1</b>	<b>3 631,7</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>1 400,7</b>	<b>1 242,8</b>
<i>tumanlar</i>		
<b>Karmana</b>	<b>24 207,7</b>	<b>2 595,3</b>
<b>Konimex</b>	<b>4 850,5</b>	<b>1 135,3</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>3 621,9</b>	<b>1 386,9</b>
<b>Navbahor</b>	<b>2 182,0</b>	<b>952,9</b>
<b>Nurota</b>	<b>1 362,5</b>	<b>1 110,1</b>
<b>Tomdi</b>	<b>1 115,9</b>	<b>1 030,0</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>1 450,6</b>	<b>1 344,1</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>1 192,1</b>	<b>1 162,2</b>



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 902,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Xatirchi (100,0 %), Tomdi (100,0%), Nurota (99,7 %), Navbahor (66,2 %), Qiziltepa (40,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʼrsatdiki, Navoiy shahrida (1,7 %), Karmana (17,3 %), Konimex (25,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda  
(2020- yil 1-iyul holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatimizda 3 083 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 685 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,2%) Navoiy shahriga, 506 tasi (16,4 %) Karmana tumaniga, 339 tasi (11,0 %) Nurota tumaniga to'gri kelmoqda.



**Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda  
(2020- yil 1-iyul holatiga ko'ra)**




2020- yil yanvar-iyun oyida viloyatimizda 545 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 120 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 22,0 %) Xatirchi tumanida, 80 tasi (14,7 %) Uchquduq tumanida, 76 tasi (13,9 %) Karmana tumanida, 74 tasi (13,6 %) Qiziltepa tumanida, 62 tasi (11,4 %) Navoiy shahrida hamda 44 tasi (8,1 %) Zarafshon shahrida tashkil etildi.



### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish. Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 96 ta loyiha bo'yicha 287 582,2 mln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 100 ta yangi ish o'rinnari yaratildi.



### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	116	96
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	14	23
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mln. so'm</i>	299 716,7	287 582,2
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>ming. AQSh dollar</i>	977,9	-
Yaratilgan yangi ish o'rinnari, <i>birlik</i>	4	100

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining  
sanoat statistikasi bo'limi**  
Tel.: (79) 223-33-29